

TERRORIZM VA AHOLI MUHOFAZASI

Bozorov Subxon Esanovich

Buxoro viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hayot
faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada terrorizm uning xususiyatlari, turlari, dunyo aholisining tinchligi va farovonligiga rahna soluvchi yovuz illatligi, dunyo va mamlakatimiz hamjamiyati ushbu yovuzlikka qarshi bir yoqadan bosh chiqargan holda kurashsagina bu kurashlar kutilgan samarani berishi xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: terrorizm, jinoiy terrorizm, ijtimoiy terrorizm, siyosiy terrorizm, biologik-sosial xarakterga ega FV, texnogen FV, sotsial FV.

KIRISH

“Dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi hamda diniy ekstremizm va terrorizmning xalqaro miqyosda tobora tus olayotgani, uning tub ildizi qir qilishi o'rniga, aksincha keng tarqalib borayotgani natijasida minglab begunoh insonlarning hayotiga zomin bo'lmoqda” - degan edi Sh.M.Mirziyoev.[1]

Terrorizmning mohiyati to'g'risida fikr yuritilsa, terrorizm tushunchasi (lotincha – «terror» - qurquv, dahshat ma'nolarini anglatadi) ma'lum yovuz maqsadlar yo'lida siyosiy kurashning jamiyatda beqarorlik o'rnatishga hamda aholida vahima va dahshat uyg'otishga qaratilgan jinoiy usuldir. Bu konsperativ ruhdagi tashkilotlar davlatni beqarorlik holatiga keltirishda shu usuldan foydalanadilar. Terrorizmning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, u buzg'unchilik, qo'poruvchilik, qo'rqitish yo'li bilan o'z hukmini o'tkazib, davlatni qulatuvchi, hokimiyatga erishishda parokandalikka olib keluvchi g'oyasidan foydalanish bilan xarakterlanadi [2].

Terrorning iqtisodiy manfaatlarini ko'zlovchi, moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan ko'rinishlarda, raqib shaxslarni jismoniy yo'q qilish,



o' g' irlab ketish, garovga olish, tajovuz bilan qo' r qitib o' z hukmini o' tkazish yoki raqiblar boyliklarini o' zlashtirishda foydalanadi.

Siyosiy maqsadlarni ko' zlagan terrorizm qadimdan mavjuddir. Masalan, O' rta asrlar davrida siyosiy terrorchilik diniy mazmundagi terrorchilik bilan qo' shilib ketgan edi. Chunki, o'sha davrlarda hukmdorlar ham diniy hamda dunyoviy hokimiyatni o'yg'unlashtirib boshqarganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonuniga muvofiq respublikamizda terrorizmga qarshi kurash qonuniylik, shaxs xuquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, terrorizmning oldini olish choralari uotuvorligi, jazoning muqarrarlighi, terrorizmga qarshi kurash oshkora va noooshkora choralari uyg'unliga, jalb qilinadagan kuchlar va vositalar tomonidan terrorchilikka qarshi o'tkaziladagan rahbarlik qilishda yakkaboshchilik tamoyillari asosida olib boriladi. Terrorizmga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirlighi, Davlat bojxona qo'mitasi, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari ishtirok etadi.

Terrorizmning to'rt davri mavjud: qadimgi, klassik, an'anaviy va zamonaviy. Rossiyalik ekspert V. Postolnik (RF IIV Moskva instituti kafedra mudiri) - terrorizmni ko'rinishiga qarab quyidagicha tasniflaydi, Siyosiy terrorizm, Ijtimoiy terrorizm, Milliy terrorizm, Hududiy-separatistik terrorizm, Dunyoqarash terrorizmi, Biologik terrorizm, Jinoiy terrorizm.[3]

Ma'lumotlarga ko' ra, hozir dunyoda 500 ga yaqin terrorchi tashkilotlari mavjud bo' lib, ularning 80 % islom niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatoriga " al-Qoida", " Musulmon-birodarlar", " Hizbut-tahrir", " al-Jihod al-Islomiy", " at-Takfir val-Hijra" (Misr), " Abu Sayyof" (Filippin), " Ozod Achex", " Lashkari jihod" (Indoneziya), " Qurolli islomiy harakat" (Jazoir), vahhobiylar, ABu Nidal guruhi, Qurolli islom guruhi, AUM Sinrikyo, Basklar va ozodlik vatani, Al-Jamoa al-islomiya, HAMAS, Musulmon birodarlari, Harakat al-mujohidiyn, Hizbulloh, " 17 noyabr Inqilobiy tashkiloti", " Inqilobiy xalq-ozodlik fronti partiyasi" (" Del Sol" nomi bilan ma'lum), " Inqilobiy xalq kurashi", " Sendero Lyuminoso" (" Yorug' yo' l", shuningdek " Partizanlar-xalq armiyasi"), " Tupak Amaru

inqilobiy harakati” , “ O‘zbekiston Islom harakati” , “ O‘zini mudofaa qilish birlashgan kuchlari” kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.[4]

AQSH Davlat departamentining ma’lumotlariga ko‘ra, 2006 yili dunyoda 14338 (2005 yili - 11153) terrorchilik harakatlari amalga oshirilgan bo‘lib, ular oqibatida 20498 odam halok bo‘lgan (2005 yili 14618 ta). Qo‘poruvchiliklar oqibatida 1800 nafar yosh bola hayotdan ko‘z yumgan yoki yarador bo‘lgan. Terrorchilik harakatlarining 45% Iroqda, yana shuncha foiz harakat Misr va boshqa arab davlatlarida amalga oshirilgan. Terrorchilar 2006 yili 350 ta masjidni vayron qilishgan. 6630 marta odam o‘g‘irlangan. Yaqin Sharq mamlakatlaridagi bugungi siyosiy holatni o‘zingiz ko‘rib turibsiz.[5]

Moldovalik tadqiqotchi O. Balan fikricha, terrorizmni quyidagi tamoyillar asosida tasniflash mumkin.[6]

I. Terroristik aktning maqsadi va g‘oyasiga ko‘ra:

- a) jinoiy terrorizm - u moddiy yoki shaxsiy manfaatlardan kelib chiqadi. Amalda talonchilik, shantaj va tahdid tarzida uchraydi;
- b) ijtimoiy terrorizm - uning maqsadi - biron bir mamlakatda hukumatni ag‘darish, ijtimoiy tizimni izdan chiqarish. O‘ziga xos jihati shundaki, bu shakldagi terrorizm odatda boshqa bir mamlakat hududiga o‘tib ketmaydi (biroq ta’sir etishi mumkin);
- v) siyosiy terrorizm asosiy maqsadi-davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni buzish, aniq bir siyosiy rahbar yoki davlat boshlig‘ini yo‘q qilish. Bu kabi teraktga tarixda misolla ko‘p uchraydi.

O‘zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi 7 ta xalqaro shartnomani imzolagan.

Jamiyatning barqaror rivojlanishida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tadrijiy va tizimli ravishda amalga oshiriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tub, sifatiiy o‘zgarishlarning asosini tashkil etadi.

Huquqiy davlat qurish borasida respublikamizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilib, bu yo‘nalishda katta yutuqlarga erishildi. Halqaro andozalarga javob beradigan va milliy o‘zligimzini aks ettiradigan Konstitutsiya qabul qilindi. O‘zbekiston inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan, jahon miqyosida e’tirof etilgan ko‘plab xalqaro deklaratsiya, konvensiya va hujjatlarga qo‘shildi va shundan kelib chiqadigan siyosiy va huquqiy qoidalar respublikamizning siyosiy taraqqiyotida va huquqiy me’yoriy tizimni rivojlantirish jarayonida inobatga



olinmoqda. Lekin bu borada hali muayyan muammolar mavjud. Chunki qisqa vaqt mobaynida bunday har tomonlama va chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish uda qiyin. Ayni paytda, inson huquqlari va erkinliklarining qamrov doirasi kengayib, rivojlanib borayotganini va har bir mamlakatda o'ziga xos tarzda namoyon bo'layotganini ta'kidlash lozim. Tolerantlik (bag'rikenglik) munosabati barcha ijtimoiy guruhlar va shaxslar orasida amalga oshirilgan taqdirdagina dunyoviy davlat va jamiyat barpo etishi mumkin.

XULOSA VA MUNOZARA

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida terrorizm insoniyat hayotiga katta xavf sola boshladi. O'zining niyatini oshkora eta boshladi. Jumladan, Nyu-York (AQSH) shahridagi butunjahon savdo markazining ikki binosi sanoqli daqiqalar ichida yer bilan yakson bo'ldi. Shuningdek, Irlandiya va Angliyadagi "UPA", Ispaniyadagi "ETA", Osiyoda jinoyatkorona faoliyat olib borayotgan "AL-Qoida", "Kharmas" kabi yer yuzasining turli burchaklaridagi 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari turli ko'rinishdagi qabih ishlarni amalga oshirdilar va hozirda ham olib bormoqdalar. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda 1975-yildan to bugungi kungacha dunyoning turli mamlakatlarida 10 mingga yaqin terroristik harakatlar sodir etilgan.

Terrorchilik xarakatlari xavfi tug'ilganda aholi va hududlarni muxofaza qilish tadbirlari.

Terroristik aktlarni kelib chiqishini sosial yoki sosial-biologik texnogen xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Texnogen xarakterga ega FV

Xavfli yadro ob'ektlarda radiaktiv moddalarni tashlab yuborilishi yoki portlatish:

Yadro o'q doiralarni (bosqirpaslarni) portlatish jarayoni bilan kombinasiyalangan zonani tashkil qilinishi;

Atrof muxitni radiaktiv moddalar bilan zaxarlash, bu radiaktiv moddalarni changini tarqatish va suv xavzalarida radiaktiv moddalarni eritish va tashlash yo'li bilan;

Ximiyaviy xavfli ob'ektlarda avariya bilan tashlab yuborilishi yoki tashlab yuborishi xavfini tug'dirishi;

Saqlanadigan omborlarda esa biologik xavfli moddalarni chiqarib tashlash;

Atrof muxitni xil yo'llar bilan ximiyaviy zaxarlash;

Turli xildagi transportlar avariylari yoki katastrofalari;

Magistral truboprovodlar avariylari;

Gidrodinamik avariylar;

Inson xayoti taxminlovchi komunall tarmoq va elekt tarmoqlardagi avariylar;

Biologik-sosial xarakterga ega FV;

Epidemiyalar

Epizootiyalar

Epifitotiyalar

Sosial xarakterga ega FV

Garovga olish: turli transportlarni garovga olish (avtomobil, poezd, xavo va suv transportlarni); Xalq orasida ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarish uchun provokasiya;

Jamiyatda xolatlarni destabilizasiya qilish yo‘llarida turli axborot vositalarini-qo‘llash;

Davlatlarda moliyaviy va iqtisodiy tizimlarini destabilizasiya qilish uchun sharoit yaratish.

Aholini va xududlarni FVdan muxofaza qilish bo‘yicha asosiy tadbirlari

Kundalik xayot rejimida terroristik aktlarni oldini olishda qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan tadbirlar.

Xuquqiy tadbirlar

FVda axoli va xududlarni ximoya qilishda xuquqiy me'yoriy-texnik xujjatlarni ishlab chiqarish va qabul qilish.

Tashkiliy tadbirlar:

FVda axoli va xududlarni ximoya qilish rejaları, terroristik aktlarga asoslangan xolda rejalashtirish jarayonida, albatta, vaziyatga qarab, xar qanday FVda negizi texnogen yoki tabiiy xarakterga bog‘liq bo‘lishi, “Favquloddagi voqealarni” aniqroq sabablarini kriteriyasini aniqlash, terroristik aktlarni qanday, qachon bo‘lganligi, tasodifiy faktorlarni minimum vaqtida aniqlash va mukammal tayyorlash, bunday xolatlar asosan xisobga olishda vaqtlardan oldinroq rejalashtirish tadbirlariga kiradi.



Mediko-profilaktik tadbirlari va xar qanday xolatlarda o'z funksiyasini mukammal oshirishni rejalashtirish lozim.

Terrorchilik holati sodir etilganda aholining hatti-harakati:

Xamon biror falokat sodir bo'lib, yovuz kuchlar tomonidan garovga olingan bo'lsangiz ham, ortiqcha xisxayajon, sarosima, vaximaga tushmang.

Xudi shunga o'xshash vaximachi, «podadan oldin chang chaqiruvchi»lar, ortiqcha baqiruv – chaqiruvchilar terrorchilarning birinchi yemishlari, qurbonlariga aylanishlarini unutmang. Bunday holatda aql, did, farosat, sabr - toqat bilan harakat qilish shart va majburdir:

terrorchilar bilan sira janjallashmang, ular bilan o'zaro yaxshi munosabat o'rnatishga harakat qiling!

ortiqcha, nojo'ya hatti - harakatlar, qo'polliklar qilmang. Aksincha, har bir hatti – harakatingiz uchun ulardan ruxsat so'rang.

ko'pchilik olomon ichida hammaga qo'shilib, «Singib» keting, o'zingizni «Barcha qatori teng»tuting, yarq etib ko'zga tashlanmang, qimmatbaxo taqinchoqlaringizni asta yeching va yashiring. Ko'ylagingizni etagi tizzadan yuqori, yoki kindigingiz ochiq bo'lsa, oyog'ingiz va qorningizni berkiting. Bo'yi daroz erkaklar bo'yinlarini egib, tizzalarini bukib, biroz «pastga» tushishsa zarar qilmaydi! Jinoyatchining ko'ziga tik boqmang! Bu uningsizga nisbatan nafrati, qaxr - g'azabini oshiradi!

Telefon orqali taxdid qilinganda: Iloji boricha "suhbat"ni yozib olishga harakat qiling;

- ✓ Yozib olish yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, suhbatni eslab qolish lozim;
- ✓ Qo'ng'iroq qiluvchi bilan uzoqroq muloqatda bo'lishga harakat qiling, uning yoshi, millati, jinsini taxminan aniqlashga harakat qiling, ovozi, gapirish ohangiga va nutqiga etibor qarating;
- ✓ Qo'ng'iroq to'g'risida tegishli organlar (MXX, ichki ishlar bo'limi)ga habar bering, zarur bo'lsa odamlarni evakuasiya qilishni tashkil eting.

Portlovchi qurilma ishga tushganda:

- ✓ Sodir bo'lgan voqea to'g'risida tegishli joylar (ichki ishlar bo'limi, qutqaruv xizmati, hokimiyatning tezkor navbatchisi)ga habar bering;



- ✓ Imkon qadar yuzaga kelgan vaziyatga baho berishga xarakat qiling;
- ✓ Portlash joyi, jarohatlanganlar soni, yong'in chiqqan-chiqmaganligi va x.k.;
- ✓ Voqea joyiga begonalar va qiziquvchilar yaqinlashishining oldini oling;
- ✓ Jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil eting.

Shubhali buyum topib olinganda:

- Zudlik bilan topilgan shubhali buyum to'g'risida xabar bering;
- Odamlarni xavfsiz joyga olib chiqing;
- odamlarni shubhali buyumga yaqinlashishlariga, radio aloqa vositalari, uyali telefon va radio portlatgichning ishlab ketishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan vositalardan foydalanishga yo'l qo'ymang;
- Huquqni muhofaza qilish organlari vakillari yetib kelishini kuting

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеяси 72-сессиясидаги нутқи
2. Ekstremizm va terrorizm — havfli illat. Dilnoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar, dilmoma.uz, 07.08.2022 yil Dilrabo Kuryazova.
3. Классификация террористических актов
<http://www2.bigpi.biysk.ru/antiterror/>.
4. Имом бухорий ҳалқаро илмий тадқиқот маркази директор ўринбосари Бахтиёр Тураев diniy ekstremizm va terrorizm, bukhari.uz
5. Имом бухорий ҳалқаро илмий тадқиқот маркази директор ўринбосари Бахтиёр Тураев diniy ekstremizm va terrorizm, bukhari.uz
6. Молдовалик тадқиқотчи, филология фанлари профессори О. Балан маърузаси.
7. “Terrorizmga qarshi kurashishda huquqiy asos”, Dilrabo Kuryazova Dilnoma, yangiliklar taxlil tanqid va muloxazalar, dilmoma.uz. 12.07.2022 yil
8. R.Raxmonov. Terrorizm va globallashuv masalalari // falsafa va huquq. -2008- №2.-B.10-13.